

GIYOHVANDLIK MODDALARINI TARQATISH VA ISTE'MOL QILISHNING GLOBALLASHUVI

Umurzoqov Faxriddin Zuxridin o`g`li

Ungarov Behzod Turg`un o`g`li

Pedagogika va psixologiya fakulteti,

Maktab menejmenti yo`nalishi 4-kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada giyohvandlik moddalari va ularning iste'molining global miqyosdagi ta'siri haqida yoritilgan, shuningdek, giyohvand moddalar tarqalishi va ularga qarshi kurash yuzasidan ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Giyohvandlik, giyohvand moddalar, kontrabanda, deviantlik, jinoyat, global miqyosdagi muammo.

Giyohvandlikning jahondagi barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga kirib kelishi va o'rinishi haqida bugungi kunda deyarli hamma xabardor bo'lsa-da, ammo bu illat hali ham o'zining global miqyosdagi "o'rni"ni yo'qotgani yo'q. Shunday bo'lsa-da, bugungi kunga kelib mamlakatimiz va dunyoning ko'plab davlatlarida uning oldini olishga qaratilgan bir qator tashkiliy ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni ushbu xavfdan yiroq qilish eng dolzarb va kechiktirib bo'lmas masalalardan hisoblanadi. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish minglab yillarga borib taqaladigan uzoq tarixga ega. Misr, Gretsiya va Rimdagi kabi qadimgi sivilizatsiyalarda giyohvand moddalar turli maqsadlarda, jumladan, davolanish, diniy marosimlar va dam olish maqsadlarida ishlatilgan. Ko'knori o'simligidan olingan afyun eramizdan avvalgi 3400-yillardayoq og'riq qoldiruvchi xususiyatlari uchun ishlatilgan. Afyundan foydalanish butun Osiyo va Yaqin Sharqda tarqalib, oxir-oqibat Yevropa va Amerikaga yo'l oldi. Afyun odatda og'riq qoldiruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatilgan, ammo uning o'ziga qaramlik xususiyati keyinchalik aniq bo'la boshlagan. Afyunning hosilasi bo'lgan morfin XIX asrning boshlarida ishlab chiqilgan va Amerika fuqarolar urushi davrida askarlarning jarohatlarini davolashda keng qo'llanilgan. Biroq, bugungi kunda

giyohvandlikning o`ziga qaramlik xususiyati uchun foydalanilishi uning illat sifatida shakllanishi hamda dunyo bo`ylab yoyilishi uchun asos bo`lib xizmat qilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumot berishicha, dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik muammosi bilan kurashadi. Ushbu miqdorning katta qismini 30 yoshgacha bo'lganlar shaxslardir. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi vafot etishi bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi aynan giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasiga muvofiq, alkogolizm, giyohvandlikka yo'liqqan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilgan taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud bo'lsa, sud jazo chorasi bilan birga ularga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ham tayinlashi belgilangan. So`nggi bir necha o`n yilliklarda giyohvand moddalarning mashhur bo`la boshlaganligi giyohvand moddalarni iste'mol qilishga bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning o`zgarishi, giyohvand moddalarning noqonuniy tarmoqlar orqali ommalashib borishi, ommaviy axborot vositalari va ommaviy madaniyat orqali giyohvand moddalar iste'moliga undashning kuchayishi va internetning yuksalishi kabi turli omillarning birlashuvi bilan bog`liq. Giyohvand moddalarning globallasuviga hissa qo`shadigan asosiy omillardan biri sifatida ommaviy madaniyat ko`rinishida giyohvand moddalarni iste'mol qilishni xuddi oddiy hodisadek ko`rsatish va yashirin iste'molning kuchayishini ta'riflash mumkin. Filmlar, televideniye, musiqa va ijtimoiy tarmoqlarda giyohvand moddalar akslangan tasvirlarni namoyish etish ham uning tarqalishida yuqori o`rin egallaydi. Bundan tashqari, texnologiya va internetning rivojlanishi giyohvand moddalar savdosi uchun chegaralar bo`ylab giyohvand moddalarni tashish va tarqatishni osonlashtirdi, bu esa dunyoning ko`plab qismlarida giyohvand moddalarning avj olishi, kontrabanda mahsulotlari va ulardan foydalanish imkoniyatining oshishiga olib keldi. Me'yoridan ortiq iste'mol o`z navbatida giyohvand moddalardan voz kecha olmay qolish bilan birga, jiddiy jismoniy va ruhiy o`zgarishlarga olib keladi. Bunday turdagi shaxslarda ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuvi, sog`lig`ini yo`qotishi, umri davomiyligi kamayishi kabi hodisalar ham kuzatiladi. Giyohvand moddalarga qaramlik natijasida kelib chiquvchi deviant xatti-harakatlarning nazorati mutaxassislar tomonidan olib borilishi zarur bo`lgan juda murakkab va ko`p vaqt talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Ularning

orzularini inobatga olish, o`zlariga va o`zlarining istiqbollariga bo`lgan ishonchini buzmaslik uchun bolalar va o`smirlar bilan juda ehtiyotkorona munosabatda bo`lish lozim¹. Shu bilan birga, bunday holatlarning qayta sodir bo`lishi va boshqa shaxslarda avj olishiga yo`l qo`yishlik ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak. Turli zararli illatlarning dunyo bo`ylab ildiz otishi ham aynan hududiy bosqichdan boshlab rivojlanadi, va e`tiborsizlik oqibatida keng tarqalib boradi. Amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlardan tashqari, har bir shaxs o`zida mas`uliyatni his etgan holda ushbu illatdan o`zi va yaqinlarini uzoq tutishi lozim. Giyohvand moddalar globalizatsiyasiga qarshi kurashish maqsadida bir qator usullar qo`llanadi. Misol uchun, ta`lim va ogohlikka da`vat etish giyohvand moddalarni iste`mol qilish xavfi va oqibatlari haqida odamlarga ongli qarorlar qabul qilishda va tengdoshlar bosimiga qarshi turishda yordam beradi. Profilaktika ishlariga jamoatchilik vakillarini, maktablarni, huquqni muhofaza qilish organlarini va boshqa tashkilotlarni jalb qilish esa giyohvand moddalarni iste`mol qilishga qarshi birlashgan ijtimoiy muhitni yaratishi mumkin. Giyohvand moddalarga oid qonunlar ijrosi va uning ta`minlanishi ham mamlakatda giyohvand moddalar savdosi bilan shug`ullanish va giyohvand moddalarni jamiyatlarda tarqalishidan himoya qiladi. Sport, san`at va jamoat ishlari kabi sog`lom faoliyat bilan shug`ullanishni rag`batlantirish odamlarga energiya va ijodkorlik uchun ijobiy imkoniyatlarni taqdim etadi. Eng muhim sanalgan samarali chora esa jamiyatning asosiy bo`g`ini bo`lgan oila orqali tarbiyani to`g`ri shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o`quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. T.: "Kamalak", 2017. 128 b
2. Xolmatova M., Muravyev N. - Yoshlar oilaviy hayot bo`sag`asida. T.: O`zbekiston, 2000
3. Sulaymonov J.B., Karimov N. - Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. p. 593-599
4. www.pedagog.uz

¹ www.pedagog.uz